



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.5281/zenodo.13970249)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 7

Published: 2.10.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Doyimova Durdonah Bahodirovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Uzbekistan

QOYATOSH SURATLARI XUSUSIDA BA'ZI TAHLILLAR (ZARAUTSOY MISOLIDA)

Abstract: In the article, the sources pertaining to the Fine arts' monuments of Zarautsay and Sarmishsay are analyzed.

Key words: monuments of the fine arts, rock paintings, petroglyphs, Zarautsay, Sarmishsay.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zarautsoy qoyatosh yodgorliklaridan topilgan tasviriy manbalar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at yodgorliklari, qoyatosh bitiklarik, petrogliflar, Zarautsoy, Sarmishsoy.

Аннотация: В статье анализирование обнаруженные источники памятников изобразительного искусства Зараут-Сая и Сармышсай.

Ключевые слова: памятники изобразительного искусства, наскальные изображения, петроглифы, Зараут-Сай, Сармышсай.

Language: Uzbek

Citation: Doyimova, D. SOME ANALYSIS OF THE PICTURES OF KAYOTASH (IN THE EXAMPLE OF ZARAUTSOY). Universal International Scientific Journal, 1(7), 14–17. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1152>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13970249>

Inson rasmlar chizish orqali tabiatdagi narsa va xodisalarga o'z ta'sirini o'tkazish yoki undagi asov xolatlarni bo'ysundirishga xayolan harakat qilgan. Ana shu tasavvurlar ta'sirida shakllangan va o'zlarining ilk ibtidoiy tajribalarini to'play boshlagan dastlabki insonlar mu'jizakor tabiatdagi asori-atiqalarning rasmini chizish uchun tabiiy tayyor g'orlardan, qoyalardan foydalangan. Ana shunday manzilgohlardan biri Zarautsoy bo'lib, O'zbekiston hududining Xisor tog' tizmasi janubiy-g'arbidagi Ko'hitang tog'ining yon bag'rida joylashgan daradagi ungir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy san'atning nodir namunalari bo'lmish madaniyat maskanidir. Qadimiy ajdodlar yaratib qoldirgan bu osori-atiqalarni o'z bag'rida ming yillardan buyon asrab kelayotgan maskan Zaraut, Zarautsoy va Zarautkamar nomlari bilan yuritiladi. Bu qoyatosh tasvirlari uzoq o'tmish haqida hikoya qiluvchi manbadir.

Zarautsoy san'at yodgorligi 1939 yilda fanga ma'lum bo'ldi. O'shanda tog' darasida yo'qolgan echkisini izlab qoya belidagi kamarga chiqqan Rauf ismli o'n yashar bola hayvon, odam va boshqa narsalarning qizil suratlarini ko'rib qoladi. Moskvada chop etiladigan "Vestnik drevney istorii" jurnali 1940 yili buni qadimiy go'zal qoyatosh suratlarining O'rta Osiyo hududidagi birinchi topilmalari, deb baholadi [1:97].

Zarautsoyni tadqiq etishda G. V. Parfyonov, A. Y. Roginskaya, A.S. Kirillov, I.F. Lomayev, A.P. Ivanova, V.K. Sandul, Sh. Ismoilov va J. Kabirovlar katta ishlarni amalga oshirdilar. Hatto ekspeditsiya ishtirokchisi asli kasbi rassom A.Y. Roginskaya «Zarautsoy» nomli risolasini rus tilida 1950 yili e'lon qildirdi.

Roginskaya A.Y. 1942 yili Moskvadan Surxondaryo viloyat teatriga rassom sifatida ishga jo'natilgan bo'lib, G.V. Parfyonov tomonidan ekspeditsiyaga jalb etilgan edi.

Bugungacha Markaziy Osiyo mintaqasida uch yuzdan ziyod qoyatosh suratlarining manzili aniqlangan va hisobga olingan. Ularning bir yuz ellikdan ko'prog'i O'zbekistonda. Lekin shunday bo'lsada, Markaziy Osiyoda topilgan qoyatosh suratlarining hammasidan Zarautsoy obidasining eng qadimiyligi hamda o'ziga xos tarzda hayotiy ishlanganligi hamon e'tibor va e'tirofga loyiq bo'lmoqda. Zarautsoy rasmlari tosh asri odamlarining badiiy ijod mahsuli, qoya rangtasvir san'atining tabiiy rangli bo'yoqda bajarilgan nodir namunasidir [2:97].

Ikkinchi jahon urushi yillari o'tkazilgan ekspeditsiyalar (1943-y., 1945-y.) hujjatlarida 26ta kamardagi 264 surat tadqiq etilgan [2:92].

Zarautsoyda tadqiqod olib borgan Parfyonov dastlab 48 ta turli figuralarni aniqladi va tavsifladi. G.V. Parfyonov quyi kamarda topilgan kichik ho'kiz figuralarining yoshini yuqori paleolitning madlen davri deb belgiladi [3:48-49]. G. V. Parfyonov Zarautsoyning asosiy suratlari paleolit rassomlari ijodining mahsuli ekanligini isbotlashga urinadi. A. Y. Roginskaya ham uning fikrlarini qo'llab quvvatlaydi. Moskva shahridagi ilmiy doiralarda Zarautsoy rangtasvirining yaratilish davri hakida bahsu munozaralar ketayotgan edi.

Tanikli olim A.A. Formozov 1951 yilda Zarautsoy suratlarining yaratila boshlangan davrini paleolit emas, balki mezolit davri bo'lgan degan fikrni asoslab taqriz chiqardi [4: 213-216].

Olimlarning uzoq vaqt mobaynida olib borgan tadqiqotlari natijasida qizil tabiiy bo'yok-oxra bilan cho'p, qamish, suyak va qushlarning pati vositasida Zarautsoy qoyalariga ishlangan tasvirlar ibtidoiy zamonning mezolit davriga, ya'ni bundan 8-6 ming yillar ilgari o'tgan o'rta tosh asriga oidligi aniqlangan. Bu - mamlakatimiz qoya suratlari ichida Surxondaryo viloyati Ko'xitang tog' tizmalaridagi Zarautsoy tasvirlarining eng qadimiy tasvirlar ekanligini bildiradi.

Zarautsoy qoyatosh suratlari tarkibida qiziqarli bo'lgan tasvirlar - niqob kiygan odamlarning rasmlari mavjud. 25 ta odamlar tasviridan 19 tasi niqob kiygan odamlar suratidir. Niqoblar keng konussimon yopqichlar va tuyaqush ko'rinishiga ega bo'lgan [5:69-71]. Bu tasvirlarni tadqiqod olib borgan olimlar turlicha izohlaydilar. Tadqiqotchi G.V.Parfyonov ularni bu joylarda ko'p uchraydigan tuvaloq qushi shakliga kirgan holda yovvoyi hayvonlarga yaqinlashishga harakat qilayotgan odamlar, deya taxmin qiladi[6]. A.A.Formozov esa «tuvaloq qushi shakliga kirgan» degan tushunchaga qo'shilmaydi. Chunki uning fikricha, odamning jisman nihoyatda kichik bo'lgan tuvaloq shakliga kirishi nomuvofiqdir. Gavdasi nisbatan yirik bo'lgan odam bu holda yovvoyi hayvonlarga sezdirmasdan yaqinlasha olmaydi deydi u. Ular yovvoyi hayvonlarni hurkitish, qo'rqitish yo'li bilan ta'sir etish uchun ovga maxsus kiyimlar bilan yasangan holda chiqqanlar. Shu bilan birga, tasvirlarda quyiga borgan sari kengayuvchi kiyim: plashch yoki burka kiygan odamlarning shaklini uchratish mumkin. Xullas, G.V.Parfyonov Zarautkamardagi bu eng qadimiy bo'lgan malla-kulrang suratlar

guruhini G'arbiy Yevropaning paleolit davri san'atiga monand qoyaga chizilgan yasantusan odamlar tasviri deb hisoblaydi[7:19].

J.Kabirov bu niqob kiygan odamlarni o'tmishda ov qilinayotgan paytda hayvonga yaqinlashishda ularni cho'chitib yubormaslik maqsadida ustiga o'sha hayvonning terisini, boshiga esa shoxini bog'lab uning qiyofasiga kirgan deb ta'kidlaydi. Xususan, qadimda hindular bizon, aborigenlar kenguru, shimoliy Sibir eskimoslari esa los, bug'u qiyofasiga kirib, ularni ovlagani hakidagi etnografik ma'lumotlar talaygina. Hozir xam asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lgan ayrim qabilalar shu usulni qo'llashadi. Zarautsoyda ham shunga o'xshash manzaraga guvoh bo'lish mumkin. Ovchilar archazorlarda o'tlab yurgan yovvoyi buqalarni avval yaqindan o'rab olib, so'ngra o'qqa tutish maqsadida aynan archasimon yopinchiqlardan foydalangan [8:73-74].

Zarautsoy rangtasvirining eng qadimiylarini dastlabkisi mezolit, keyingilarini bronza deya belgilangan J.Kabirov o'zigacha bo'lgan barcha tadqiqotchilar payqamagan yangi bir holatni tilga oladi. Zarautsoyda yovvoyi hayvonlarni o'rab ov qilish saxnalari aniq-ravshan ko'rsatilgan. Tadqiqotchi kuzatgan yangi holat shundaki, u ov saxnalaridagi odamlar bir-biriga qarshi turgan guruxdardan iborat ekanligini ko'radi. Chap guruh tasvirlari orasida raqiblar tomonidan yo'naltirilgan bir nechta o'q va nayzalar ko'rinadi. Markaziy figuralardan birida ikki o'qni ko'ramiz. Tasvirning o'ng tomonida bir o'q qadalgan shunga o'xshash figura turibdi. Suratning yuqori qismida joylashgan odam ham yaralangan. Kompozitsiyani umuman va detallarga bo'lib taxlil qilganda suratlardagi

ovchilar ikki guruxining ovdan tashqari, ehtimol, o'ljani qo'lga kiritish maqsadidagi to'qnashuvlarini xam ko'rsatmoqda [10:75].

Shu o'rinda bir savol tug'iladi – ibtidoiy odamlar ushbu tasvirlarni qanday maqsadlarni ko'zlab yaratganlar? Albatta bu suratlarda ibtidoiy davr kishilarining kundalik turmushi, diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan tasvirlar ifoda etilgan. Bu rasmlar shunchaki makon va boshpanalarni bezash uchun emas, balki kishilarga baxt keltiradi, chorva mollari va yovoyi hayvonlarning sonini ko'paytiradi degan umidda chizilgan.

Bugungi kunda bu yodgorlikni asrab-avaylash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2004 yili "Zarautsoy" jamoatchilik markazi tuzildi. Uning amaliy faoliyati Zarautsoyga yaqin

qishloqlarda yashaydigan aholi o'rtasida yodgorlikni asrab-avaylash ishlariga ularni jalb etishdan iborat.

2006 yil 17 – 18 iyul kunlari O'zbekistonning jahon ahamiyatiga molik qoya san'ati yodgorligi bilan tanishish, uning saqlanish holatini ko'rish hamda YUNESKO ro'yxatiga kiritish masalalariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan YUNESKO vakillari jamoatchilik Markazida bo'ldilar, so'ngra Zarautsoy yodgorligini borib ko'rdilar. 2009-yil iyun oyida Markaz faollari yodgorlikning ilmiy jihatdan o'rganila boshlanganligining 70 yilligiga bag'ishlab taqdimot marosimini o'tkazdilar [1:b.97].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзаев Ж., Холмирзаев А. Зарут: кишлок ва ёдгорлик тақдири//Ўзбекистон макон ва замонлар оша - Тошкент – 2011.
2. Khujanazarov M., Ranov V., Samashev Z. Petroglyphs of Central Asia. – Bishkek. 2001.
3. Рогинская А.Ю. «Зарутсай», М—Л, издательство детской литературы, 1950.
4. Формозов А.А. Книга о древней наскальной живописи в Узбекистане. – СЭ, 1951, №3. С.213-216;
5. Формозов А.А. Очерки по первобытному искусству. – М., 1969. С.69-71;
6. Парфёнов Г.В. «Наскальная живопись в Зарутсае», газета «Правда Востока», 1941 год, 6 марта, № 55.
7. Формозов А.А. О наскальных изображениях Зарут-Камара в ущелье Зарутсай. – СА, 1966, №4.
8. Кабиров Ж. Древнейшая наскальная живопись Зарутсай. // Первобытное искусство. – Новосибирск: Наука, 1976.